



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

3/2024

E-ISSN 2181-1466




9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



3/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 3, mart

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izzatullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Abdazova A.R.	The features of the use of english environmental terms in the media	3
Batirkhanova M.O.	Somatik frazeologik birliklar tahlili va ularning o'rganilish tarixi	9
Sobirova D.R.	Reklama matnlarining gender xususiyatlari (tibbiyotga oid reklamalar misolida)	15
Sadullayeva G.I.	Enhancing listening comprehension: strategies, challenges and a comprehensive methodology for language learners	17
Asadov T.H., Bakirova N.H.	Ayrim etnofrazemalarning lingvokulturologik tadqiqi (o'zbek, rus, turk tillari misolida)	26
Eshquvvatova G.N., Urinbayeva D.B.	Stylistic features of proverbs in internet texts	31
Hojiyeva M.G'.	Integrating language and content: strategies and challenges in content-based language instruction	36
Khabibova M.N.	Biografik asarlardagi epistolyar matnlarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlar	41
Mahmudova D.M.	Building a comprehensive bilingual synchronous corpus: principles and practices	45
Narzullayeva D.B.	Qur'oni Karim leksik konfiguratsiyalari: Ka'ba toponimmi yoxud teonim?	50
Sadikov E.T.	Iltifot va inkor mazmunidagi nutq aktlarining tasviriy-ifodaviy atributlari	55
Pardayev S.Sh.	Globalashuv davrida madaniyatlararo muloqot tizimidagi madaniy o'ziga xoslik	60
Mahmudova D.M.	Significance and development of linguistic corpora in Uzbekistan	66
Safoyeva S.N.	Pragmatic marker: "so" and its role in modern oral discourse	70
Turg'unboyeva D.A.	Comparative pragmatics: politeness strategies in uzbek and english languages	75
Xolova M.B.	Tushuncha madaniy kodning shakllangan birligi sifatida	81
Xusenova M.O'.	Termin va terminologiya xususida	85
Ziyayeva D.A.	Paradigmatic analysis of speech verbs	89
Zokirova N.S.	The concept of "linguistic picture of the world" in translation	94
Давлатова М.Х.	Встречение английских глаголов-предикатов в функционально-семантическом поле	98
Махмудова Ю.А.	Лингвокультурные особенности в контексте социолингвистического анализа произведения «Шайтанат»	104
Gudzina V.A., Rustamova N.Sh.	The phraseological specificity of V.Shukshin's idiostyle in fiction: an analysis of interconnections and functional features	109
Subxonqulov U.T., Adizova F.M.	So'zlarni lingvistik tahlil qilish jarayoni uchun ayrim algoritmlarining qiyosiy tahlili	114
Heydarova N.A.	"Past", "present" and "future" as temporal adjectives	119
Norova M.F.	Phraseological dialectisms in english literary works	123
Zeynalova K.	The use of some national-cultural realities in the english language, their etymology and ways of their borrowings	128
Karimova R.	Pragmatic and conceptual aspects of idioms in the discourse of the british and american press	134
Yokubova Sh.Y.	Fe'lli birikmalarning nutqiy voqelanishi	138
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Hayitov Sh.A., Qudratova K.H.	So'z va soz sehri	142

FE‘LLI BIRIKMALARNING NUTQIY VOQELANISHI

*Yokubova Shaxnoza Yusufovna,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va
jurnalistikasi kafedrasida o‘qituvchisi
sh.y.yokubova@buxdu.uz*

Annotatsiya. O‘zbek tilida fe‘lli birikmalarining lisoniy qurilishiga xos xususiyatlarni, ayniqsa, bu so‘z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlari, nutqiy-uslubiy xususiyatlarini keng miqyosda o‘rganish taqozo etiladi. Zero, fe‘llarning biriktirish va so‘z birikmalari hosil qilish imkoniyatlarini aniqlash, fe‘lli so‘z birikmalarining nutq faoliyatidagi o‘rni va vazifasini belgilash, nutq uslublarida qo‘llanilishini o‘rganish nafaqat substansial lingvistika, balki uslubshunoslik, pragmatik lingvistika nuqtayi nazaridan behad muhimdir. O‘zbek tilidagi hokim a‘zosi fe‘lli birikmalar substansial, pragmatik, sotsial, milliy-madaniy aspektlarda o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisalardandir. Ushbu maqolada hokim a‘zosi fe‘lli so‘z birikmalarining nutqiy imkoniyatlari turli xil misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fe‘lli birikma, substansial tahlil, nutq, voqelanish, lisoniy sintaktik qolip, oraliq qolip, badiiy matn, nutqiy akt.

SPEECH POSSIBILITIES OF VERB CONJUGATIONS WITH MEANING

Abstract. In the Uzbek language, it is necessary to study on a large scale the features inherent in the linguistic structure of verb conjugations, especially the possibilities of speech phenomena, oratory-methodological features of these combinations of words. After all, it is not only substantive linguistics, but also methodological, pragmatic linguistics that is immeasurably important to determine the possibilities of verb conjugation and word formation, to determine the role and function of verb combinations in speech activity, to study their application in speech styles. Verb conjugations of the governor member of the Uzbek language are one of the phenomena that should be studied in the substantive, pragmatic, social, national-cultural aspects. This article analyzes the speech possibilities of verb combinations of a governor member on the basis of various examples.

Keywords: verb, substantive analysis, speech, realization, linguistic syntactic model, intermediate model, literary text, speech act.

РЕЧЕВАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ГЛАГОЛОВНЫХ СОЕДИНЕНИЙ

Аннотация. Необходимо широко изучить особенности языкового построения глагольных сочетаний в узбекском языке, особенности речевой реализации этих словосочетаний, речевостилистические особенности. Ведь очень важно не только с точки зрения предметной лингвистики, но и с точки зрения стилистики и прагматической лингвистики определить возможности сочетания глаголов и словосочетаний, определить роль и функцию глагольных словосочетаний в речевой деятельности, а также изучение их употребления в стилях речи. Фразовые глаголы в узбекском языке – явления, которые следует изучать в содержательном, прагматическом, социальном, национально-культурном аспектах.

Ключевые слова: глагольное спряжение, субстанциальный анализ, речь, реализация, языковая синтаксическая форма, промежуточная форма, художественный текст, стилистическая функция.

Kirish. Tilimizning milliy grammatik talqini va uning natijalarini qamrab olgan o‘quv adabiyotlarining yaratilishi ta‘lim tizimining barcha bog‘inlari hamda bosqichlari orasidagi uzluksizlikni ta‘milashga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilida hokim a‘zosi fe‘lli birikmalarining substansial tadqiqida mavjud muammolar o‘z yechimlarini topmagan. Aytib o‘tish kerakki, fe‘lli birikmalarining nutqiy nominatsion, kommunikativ, stilistik, nutq yaratish bilan bog‘liq xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois xoh ilmiy, xoh o‘quv adabiyotlari bo‘lsin, mazkur masalalarning yoritilishi yoki ma‘lumotlarning berilishida kemtikliklar bor. Bu esa, hokim a‘zosi fe‘lli birikmalarining lisoniy qurilishiga xos xususiyatlarni, ayniqsa, bu so‘z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlari, nutqiy-uslubiy xususiyatlarini keng miqyosda o‘rganishni taqozo etadi. Zero, fe‘llarning biriktirish va so‘z birikmalari hosil qilish imkoniyatlarini aniqlash, fe‘lli so‘z birikmalarining nutq faoliyatidagi o‘rni va vazifasini belgilash, nutq uslublarida qo‘llanilishini

o'rganish nafaqat substansial lingvistika, balki uslubshunoslik, pragmatik lingvistika nuqtayi nazaridan behad muhimdir. O'zbek tilidagi hokim a'zosi fe'lli birikmalar substansial, pragmatik, sotsial, milliy-madaniy aspektlarda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisalardandir.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hokim a'zosi fe'l bilan ifodalangan birikmalar o'zbek tilshunosligining formal grammatik tahlil usullari asosida yetarlicha o'rganilgan va bu nutqiy sintaktik birliklar to'g'risida yetarlicha empirik bilimlar shakllangan. Lingvistik birlikning mohiyatini ochish uchun empirik bilimlar yetarli emas, buning uchun substansial tadqiq usullari asosida tahlil etish lozim. Substansial tadqiq usullari asosida tahlil etilgan fe'lli birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlari, nutqiy-uslubiy xususiyatlarini keng miqyosda o'rganish alohida masala hisoblanadi.

Formal-funksional tahlil yo'nalishi tadqiq usullari bilan yaratilgan ilmiy manbalarda hokim so'zi fe'l bilan ifodalangan so'z birikmalarini voqelantiruvchi quyidagi asosiy lisoniy sintaktik qoliplar (LSQ) ajratilgan:

1. [I^{k.k.} ~ F]=SBLSQ
2. [I^{ko'm.} ~ F]=SBLSQ
3. [I ~ F]=SBLSQ

Yuqoridagi umumiy lisoniy sintaktik qoliplar ismlar (ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdosh)ning kelishik ko'rsatkichi yordamida, ko'makchi bilan hamda hech qanday grammatik vositalarsiz fe'l so'z turkumi bilan birikuvidan hosil bo'lgan so'z birikmalarini yuzaga chiqaradi: *kitobdan o'qimoq, gulni uzmoq, dalada ishlamoq, niyatiga yetmoq; zarb bilan urmoq, tun bo'yi suhbatlashmoq, mehr bilan qaramoq; piyoda yurmoq, tez gapirmoq, shunday yashamoq, milt-milt yonmoq.* Mazkur nutqiy hosilalar [obyekt-harakat] yoki [belgi-harakat] ma'noli so'z birikmalaridir.

Hokim a'zosi fe'lli birikmalarining nutqiy voqelanishini tadqiq etish dolzarb muammolar kun tartibida turgan ekan, bu muammoni fe'lli birikmalarining uslubiy qo'llanilishini o'rganish natijasida yechish mumkin. Bu esa, fe'lli birikmalarni badiiy matn asosida o'rganish va nutqiy uslubiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Quyidagi misollar fe'lli birikmalarining uslubiy qo'llanilishi xususidagi mulohazalarimizning dalili sifatida tanlangan. Chunonchi:

1. – *Unaqa emas, Bek aka, sizni hurmat qilaman.*

– *Hurmat qilasiz-u, lekin qo'rqasiz. Sizga aytmagandirman, o'zingiz odamlardan eshitgandirsiz balki, men bolaligimdan boshlab qimorning hadisini olganman. Gapning dangalini, naqdini, halolini, xullas, o'gil bolasini yoqtiraman. Ilgari ham bolalaringizni bering, deganimda mijg'ovlik qiluvdingiz. Men pul topishni bilaman. Agar xohlasangiz o'g'lingizga kooperativ taksilardan bittasini berib qo'yay, istasangiz uzoqqa qatnaydigan KamAZlar bor.* [2; 165.]

Hokim a'zo (fe'l) birdan ortiq tobe a'zoni biriktiradi, tobe vaziyatdagi so'zlar uyushib kelishi mumkin: *dangalini, naqdini, halolini, o'gil bolasini yoqtiraman.* Bir nechta tobe a'zolari uyushib kelgan fe'lli so'z birikmasi ushbu nutqiy aktda mard, tanti, dangal erkak kishiga xos bo'lgan, emotiv gapni yuzaga chiqarishga xizmat qilyapti. Ma'noni kuchaytirish maqsadida tobe a'zolar uyushib kelgan.

2. *Zog'ora nonni olib... chappa burildi. Nonni katta-katta tishladi. Nonni katta-katta chaynadi. Nonni katta-katta yutdi.* [4; 281.] *Katta-katta tishlamoq, katta-katta chaynamoq, katta-katta yutmoq* [I~F]=SBLSQi, [Sf~F]=SB oraliq shakli asosida yuzaga kelgan. Bu so'z birikmalari darajalanish hosil qilishga xizmat qilgan. Non iste'mol qilishdagi harakat (oldin tishlanadi, keyin chaynaladi, keyin yutiladi) darajalangan. Ushbu parchada och odamning non yeyish harakati bo'rttirilgan, "katta" sifatining takror qo'llanishi ham bunga sababdir.

3. *Raykom Esonov yigitni ichkari taklif etdi. ...Gapni nimadan boshlashni o'yladi. "Daroz odamni esi kamroq bo'ladi, - deya o'yladi. – Shu bois faqat bo'yiga o'sadi. Buni esi qanaqa ekan?"*

– *Qani o'zingizni tanishtiring-chi?* [4; 308.] Ichkari taklif etmoq (ichkariga taklif etmoq tarzida ham qo'llaniladi) [I^{k.k.} ~ F]=SBLSQi, [O^{b.k.} ~ F]=SB oraliq shakli asosida hosil bo'lgan. *Bo'yiga o'smoq* so'z birikmasi [I^{k.k.} ~ F]=SBLSQi, [O^{j.k.} ~ F]=SB oraliq shakli asosida hosil bo'lgan. *Bo'yiga o'smoq* birikmasi so'zlovchining yigit haqida subyektiv munosabatini ifodalashga ko'maklashadi. Nutqidagi jumlar (Daroz odamni esi kamroq bo'ladi. Shu bois faqat bo'yiga o'sadi.) mazmuni buni aniqlashtiradi. Demak, ushbu nutqdagi fe'lli birikma shaxsning subyektiv munosabatidan kelib chiqqan holda hosil qilingan.

4. – *Baratan, limonad-pimonad quyib beraymi?* – *dedi yoqqich bergan yigitcha piching bilan.*

– *Rahmat, bratishka, men limonad ichish yoshidan o'tib ketganman. Senlar ham o'tganga o'xshaysanlar-u, lekin bunaqa o'tirishlaringga besh ketmadim. Senlarning yoshlaringda tovonlarimizdan o't sachrab turardi.*

Bizning yoshimizda?.. Ancha qarib qolibsiz-da, a? – *dedi Marlen zaharli ohangda.* [3;194.]

Nutqiy muloqotda fe'lli birikmalar (limonad-pimonad quyib bermoq; ancha qarib qolmoq) salbiy

hissiy ta'sirchanlikni hosil qiluvchi nutqiy tuzilmalarni shakllantiradi: "... limonad-pimonad quyib beraymi? Ancha qarib qolibsiz-da, a?" Ushbu fe'lli birikmalar behurmatlik, mensimaslik, piching, kinoya kabi pragmatik mazmunni ifodalashga xizmat qilgan. Ancha qarib qolmoq [I ~ F]=SBLSQi, [R_{m-d} ~ F]=SB oraliq shakli asosida hosil bo'lgan.

5. *Kampiri oshxona derazasidan yuz ko'rsatdi.*

– *Keldingizmi, rais bova? - dedi. (Kampir cholini "rais bova" deb chaqiradi.)*

– *Charchadim, itday charchadim.* [4; 336.] *Itday* charchamoq [I^{o'x.sh.} ~ F]=SBLSQi, [O^{o'x.sh.} ~ F]=SB oraliq shakli asosida hosil bo'lgan. Yuqoridagi nutqiy aktda o'xshatish munosabatidagi so'zning fe'l bilan birikuvidan hosil bo'lgan fe'lli birikma hol-ahvolni so'rash vaziyatida bu so'z birikmasi jismoniy holatni tasvirlash uchun voqelangan.

Fe'lli SBlarining badiiy nutqda qo'llanish imkoniyatlari biz o'ylagan darajadan kattaroq va kengroqdir. Bu esa fe'lli birikmalarining badiiy nutqda voqelanish imkoniyatlarini ko'rsatuvchi dalillarni izlash va tahlil qilishda davom etishni talab qiladi.

1. *Ziyodulla chavandoz, bizning to'riqni bir ko'ring, ukam.* [4; 20]

2. *Tarlon bir-bir bosib, oyoq ildi.* [4; 20]

3. *"Bizniki xiyla olisda bo'ldi. Tarlonni uyimizga bog'lab kelaman degunimcha, qozon ikki qaynaydi. Chavandozlar mening yo'linga qarab o'tirmaydi. Go'shtni yeydi-qo'yadi!"* [4; 95]

4. *"Ra'no Anvarning maqsadig'a tushundi shekillik, bir necha vaqt jim qoldi va qarshisidag'i yigitning o'ychan yuziga bir-ikki qarab oldi".* [6;32]

5. *"Maxdum darboza yonida muborakbodchi mudarrislardan birini ikki buklanib ta'zim qilg'an holda uzatar edi. Hazrati mudarris xayrlashgan joyida yana to'xtab tomoq qirib oldi".* [6;46]

Berilgan beshta nutqiy parchada [belgi-harakat] umumiy mazmunida birlashuvchi, ammo har biri bu mazmunni o'ziga xos tarzda – ma'no nozikligi bilan yuzaga chiqargan besh xil fe'lli birikma voqelashgan. Bular *bir ko'rmoq, bir-bir bosmoq, ikki qaynamoq, bir-ikki qarab olmoq, ikki buklanmoq* birikmalaridir. Birikmalar tarkibidagi so'zlarning leksik-semantik va morfologik xususiyatlari birikish tarzida umumlashtirilsa, ular [S~F]=SB oraliq qolipi mahsuli sifatida ajratiladi. Shunisi ahamiyatliki, [S~F]=SB qolipining hosilalari nutqiy parchalarda harakatning miqdoriy belgisini bildirishi bilan bir qatorda turli xil ekspressiv, uslubiy vazifalar ham bajaradi. Masalan, *bir-ikki qarab oldi* ko'z harakati va uning noaniq, taxminiy miqdorini, *ikki qaynamoq* qaynash harakatining aniq miqdorini anglatadi, biroq ushbu jumlada *qozonning ikki qaynashi* orqali vaqt me'yoring berilishi lingvomadaniy xususiyatlar uyg'unligi hisoblanadi. Birinchi jumladagi *bir ko'rmoq* birikmasida harakatni bir marta bajarimoq ma'nosi emas, balki harakatni sinash maqsadida bajarish nazarda tutiladi. Ayni paytda, oxirgi jumlada kelgan *ikki buklanib ta'zim qilmoq* birikmasida qo'llangan ikki son so'z turkumi harakatning miqdorini emas, bukilmoq harakati "2" shakliga ishora qilinishini ifodalayapti.

1. *«Jo'ra boboning gapini yerda qoldirib bo'lmaydi. Jo'ra bobo oltmishdan oshib qoldi. Ammo farzandi yo'q...»* [4; 37]

2. *«Shu burchakda o'y surib o'tirgan Odina chavandozni ashulaga solsamkin?»*

O'ttizni urib qo'ydi, hali-da uylanmadi!» [4; 97]

3. *«O'g'ul yigirmaga, qiz o'n beshka yetdimi – onalarning dardi kelin va kuyav savdosi bo'lib qoladir».* [6;5]

4. *«Naima ham o'n sakkizga to'ldi, ya'ni kelin ham kerak, kuyav ham. Naima to'g'risidan tashvish yo'q, husn, odob, yumish, hammasidan ko'ngil to'q, bek bo'lmasa – bekozda, mudarris bo'lmasa – mukarrir».* [6;5]

Birgina insonning yoshini ifodalash uchun o'zbeklar kommunikativ vaziyati, gender xususiyatlar, pragmatik vaziyatdan kelib chiqqan holda bir necha xil so'z birikmalaridan foydalanadi. [S^{k.k.} ~ F]=SB oraliq qolipi hosilasi hisoblangan kelishik ko'rsatkichi bilan shakllangan son so'z turkumi va fe'lning o'zaro birikuvidan iborat bo'lgan *oltmishdan oshmoq, o'ttizni urib qo'ymoq, o'n beshga yetmoq, o'n sakkizni to'ldirmoq* so'z birikmalari kelgan. *O'ttizni urib qo'ymoq* birikmasi erkak jinsiga mansub adresant tomonidan ijtimoiy mavqeyi bir xil bo'lgan adresatga nisbatan qo'llangan, og'zaki so'zlashuv uslubiga mansub. *O'n sakkizga to'ldi* birikmasi esa adabiy tilga mansub hisoblanib, muallif tomonidan bayon etilyapti. Demak, fe'lli birikmalar badiiy tasvirning ifodaviyligi, hayotiyiligi va ta'sirchanligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa. Nutqimizda cheklanmagan miqdorda qo'llanadigan fe'lli birikmalarining pragmatik xususiyatlari badiiy, ilmiy, publitsistik va so'zlashuv nutqiga xoslanishi asosida aniqlanadi. Nutqda voqelashgan fe'lli birikmalar til egasining kommunikativ maqsadi, subyektiv bahosi, milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirishi va xoslanishi dalillanadi.

1. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). *Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education* ISSN, 2249-9822.
2. Малик, Тоҳир. *Шайтанат. (4-китоб). –Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011. – 640 б.*
3. Малик, Тоҳир. *Шайтанат. (5-китоб). –Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011. – 640 б.*
4. Мурод, Тоғай. *Танланган асарлар. II жилд. Отамдан қолган далалар. Бу дунёда ўлиб бўлмайдди. Романлар. – Тошкент: Sharq, 2011.– 448 б.*
5. Назарова С.А. *Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.*
6. Mehrobdan chayon [matn] roman/A.Qodiriy. - T.: G'afur G'ulom nomidagi „Adabiyot va san'at“ nashriyoti, 1994- 322-b.
7. Hamroyevich, A. T. L. (2024, March). *FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI HAQIDA. In Konferensiyalar/ Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 63-68).*
8. Hamroyevich, A. T. L. (2021). *MUALLIF NUTQI METAFORALARINING YUZAGA KELISH ASOSLARI XUSUSIDA: Asadov To 'lqin Hamroyevich Buxoro davlat universiteti o 'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, ffn. In Научно-практическая конференция.*
9. XAYRULLAYEVA M. *BUXORO VILOYAT VOBKENT TUMANDAGI JOY NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLARNING PAYDO BO 'LISHI //LTEACHIN ANGUAGE. – С. 77.*
10. Xayrullayeva M. *VOBKENT TUMANI MIKROTOPONIMLAR //Philological issues are in the eyes of young researchers. – 2023. – Т. 1. – №. 1.*
11. Xayrulloeva G. *Individuality in the Interchangeable Use of Punctuation //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.*
12. Xayrulloeva G. F. *qizi. (2023). SO 'ROQ BELGISINING PRAGMATIK AHAMIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4 SPECIAL), 194–199. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2820>*
13. Yokubova, S. (2023). *ГЛАГОЛ И ПРОСТАЯ СТРУКТУРА ПРЕДЛОЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).*